

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**JUMAYEV BAHROM PANJIYEVICH**

**O‘QUVCHI YOSHLARDA TARIXIY XOTIRANI  
SHAKLLANTIRISHNING ETNODIFFERENSIAL XUSUSIYATLARI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

UO‘K: 101.1:316:930-053.81(575.1)

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
philosophical sciences**

**Jumayev Bahrom Panjiyevich**

О‘quvchi yoshlarda tarixiy xotirani shakllantirishning etnodifferensial  
xususiyatlari .....3

**Жумаев Бахром Панжиевич**

Этнодифференциальные особенности формирования исторической памяти  
у учащейся молодежи .....23

**Jumayev Bakhrom Panjievich**

Ethnodifferential features of the formation of historical memory in student  
youth.....45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of works published.....50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**JUMAYEV BAHROM PANJIYEVICH**

**O‘QUVCHI YOSHLARDA TARIXIY XOTIRANI  
SHAKLLANTIRISHNING ETNODIFFERENSIAL XUSUSIYATLARI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Fa1560 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Alimasov Viktor Aleksandrovich</b> falsafa fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Xajiyeva Maqsuda Sultanovna</b> falsafa fanlari doktori, professor <b>Shokirov Mubin Rustamovich</b> falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Buxoro davlat texnika universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "4" 09 soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz))

718 Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (718 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)


Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "22" avgust kuni tarqatildi.

(2025-yil "22" avgust dagi 32 - raqamli reyestr bayonnomasi.)



**Namozov B.B.**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Sharipov A.Z.**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
falsafa fanlari doktori, professor

  
**Safarova N.O.**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,  
falsafa fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda xalqaro maydonda hukm surayotgan tahlikali jarayonlar, xavotirli geosiyosiy va geoiqtisodiy arxitektura, global siyosiy va iqtisodiy “parchalanishlar” demokratiya va modernizatsiya bayrog‘i ostida tarixga nigilistcha munosabatda bo‘lish obektiv bilimlarni ochiqdan ochiq rad etib, ajdodlar merosini mensimaslik kabi salbiy holatlar tez-tez ko‘zga tashlanmoqda. Bunday ziddiyatli sharoitda yoshlarda tarixiy xotirani shakllantirish, o‘z xalqiga xos bo‘lgan milliylikni, tarixiylik va ma‘naviylikni asrashga bo‘lgan qiziqish va ko‘nikmalarni tarbiyalash muhimdir. Shuning uchun ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta‘minlashda, inson qadr-qimmatini yuksaltirish imkoniyatlarini barqaror taraqqiyot strategiyalari bilan uyg‘unlashtirishda tarixiy xotira fenomenining milliy o‘zlikni anglash, ong va tafakkur bilan bog‘liq funksional xususiyatlarini hamda konseptual ahamiyatini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fanida tarixiy xotirani shakllantirish bilan bog‘liq masalalar ko‘p qirrali ilmiy tahlil va multidissiplinar yondashuv asosida faqat tarix fanining emas, balki sotsiologiya, psixologiya, siyosatshunoslik va madaniyatshunoslik sohalari bilan chambarchas bog‘liq tarzda, o‘zaro integratsiyalangan holda tadqiq etilmoqda. Tarixiy xotiraning milliy o‘ziga xoslikni saqlashdagi ahamiyati, xotira siyosati (memory politics), tarixiy xotiraning mazmuni va mohiyati, tarixiy xotirani moddiy makonlarda aks ettirish yo‘llari, tarixiy revizionizmga qarshi kurashish imkoniyatlari bilan bog‘liq masalalar dolzarblashmoqda. Shu bois tarixiy xotiraning etnometodologik, uzviylik, etnomadaniy muhit, ijtimoiy-mafkuraviy tarbiya va prakseologik qonuniyatlarini, ularning ijtimoiy demografik, psixologik, etnodifferensial va professionallashish kabi omillarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” va “Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish” g‘oyalari asosida o‘zbek xalqining tarixiy-madaniy merosini, davlatchiligi va etnoan‘analarini yoshlar turmush tarziga, ongiga singdirishga oid hamda tarixiy-madaniy va ma‘naviy merosni asrash, ular orqali barkamol yosh avlodni tarbiyalash kabi strategik yo‘nalishlarda islohotlar amalga oshirilmoqda. “... vatandoshlarimizni tarixiy Vatan atrofida yanada jipslashtirish, qalbi va ongida ona yurt bilan faxrlanish tuyg‘usini yuksaltirish, milliy o‘zlikni saqlab qolish, ularning yurtimiz taraqqiyotiga doir ijodiy g‘oyalarini, tashabbuslarini rag‘batlantirish, xorijda murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan vatandoshlarimizni belgilangan tartibda moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularga axborot jihatidan va huquqiy yordam ko‘rsatish kabi masalalarni Yangi O‘zbekiston siyosatining ustuvor yo‘nalishi deb belgiladik”<sup>1</sup>. Ayniqsa, barkamol avlod konsepsiyasi bilan bog‘liq ravishda tarixiy xotirani shakllantirishning milliy-ma‘naviy, innovatsion pedagogik-ijtimoiy muhit, taraqqiyotga aloqadorlik kabi tamoyillari hamda innovatsion, pedagogik-ma‘rifiy, amaliy-ijtimoiy usullarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2024. - B.62.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 31-maydagi PQ201-son “Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida” qarorlari va Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019 yil 31 dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda mavzuga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tarixni ilmiy o‘rganish Sharqda ham, G‘arbda ham uzoq davrdan beri davom etib keladi. Xususan, Abu Rayhon Beruniy Sharq xalqlari, avvalo, hind xalqi tarixini, Ibn Xaldun esa jahon tarixini yaxlit konsepsiya sifatida tadqiq etgan. Alisher Navoiy asarlarida o‘zidan oldin yashagan va zamondoshlari haqida bebaho ma’lumotlar qoldirilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari xalqimiz o‘tmishiga oid boy manbadir. G‘arbda esa tarixni o‘rganishning ilmiy va falsafiy metodologik masalalari Fukidid, Gerodot, Platon, Plutarx, Aristotel, Diogen Laertiy, I.Kant, G.Gegel, K.Yaspers, A.Toynbi va boshqa mutafakkirlar tomonidan atroflicha tahlil qilingan<sup>2</sup>.

XXI asrda tarixiy xotirani shakllantirish va mustahkamlash bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar o‘zining yangi pallasiga kirdi. Jumladan, xorijda D.Budraytning xotira siyosatiga oid, Ch.Delusiyaning tarixiy xotiraning shakllanishiga doir, O.Fridmanning tarixiy xotirada muhrlanib qoladigan salbiy taassurotlarga bag‘ishlangan, O.Malinovanning millatchilik siyosatining tarixiy xotiraga ta’siriga oid, J.Makglinning tarixiy xotirani yaratuvchi subyektlarga tegishli, J.X.Limning ommaviy axborot vositalarining tarixiy xotira shakllanishiga ta’siriga doir,

---

<sup>2</sup> Беруний Абу Райхон. Танланган асарлар. 3 жилд. – Т.: Мерос, 1966. – 280 б.; Ibn Xaldun. Muqaddima. /Said Komil Muhammad Karim tarjiması. –Т.: Trust and support, 2025. -400 b; Алишер Навоийнинг ижодий мероси ва унинг жаҳоншумул аҳамияти. – -Т.: Фан, 2001. –252 б; Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Т.: Юлдузча, 1989. – 367 б.; Фукидид. История. В 2 т. Т. 1. - Санкт-Петербург: Пролог, 1994. - 216 с.; Геродот. История в девяти книгах. – М.: АСТ, 2001, - 342 с; Платон. Диалоги Государство. /Перевод В.Карпов, А.Егунов. – М.: Азбука, 2022. – 800 с.; Плутарх. Жизнеописание. – М.: Прогресс, 1989. -187 с.; Платон. Сочинения. В четырех томах. Том 1. – М.: Мысль, 1974; Аристотель. Политика. –М.: АСТ, 2016. – 384 с; Лаэртский Д. О жизни, учениях и изречениях знаменитых философов. – М.: Мысль, 1979. -226 с.; Кант И. Предполагаемое начало человеческой истории // Трактаты и письма. – М.: Наука, 1980. -361 с.; Гегель Г.В.Ф. Философия истории. – М.: Мысль, 1975 325 с.; Ясперс К. Смысль и значение истории. – М.: Республика, 1991. -261 с.; Тойнби А. История цивилизаций. – М.: Прогресс, 1991. -342 с.;

N.Richardson-Litl, S. Merrill va L.Arloudlarning kishilarning tarixiy voqealarga turlicha munosabatlari sababiga bag‘ishlangan ilmiy ishlari jamoatchilikning jiddiy e‘tiboriga sazovor bo‘ldi<sup>3</sup>.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida I.Andreyeva, S.Axmetzyanov va G.Vasilyevlarning tarixiy xotirani saqlash muammolari, I.Vasilyev va A.Kuznetsovlarning tarixiy xotiraning vatanparvarlik tarbiyasidagi roliga, I.Gribanning tarixiy xotirani shakllantirishning zamonaviy masalalariga, A.Miller va D.Yefremenkolarning Sharqiy Yevropa mamlakatlarining xotira siyosatiga bag‘ishlangan, V.Rubin va Ye.Fominaning harbiy monumentlarning tarixiy xotirani shakllantirishdagi ahamiyatiga, Ye.Savrutskaya va S.Ustinkinning tarixiy xotiraning milliy xavfsizlikni ta‘minlashdagi roliga bag‘ishlangan tadqiqotlari chop etilgan<sup>4</sup>.

O‘zbekistonda tarixiy xotirani mustahkamlashning ayrim jihatlari N.Jo‘rayev, D.Norqulov, D.Qoraboyeva, A.Tohiriyonlarning ilmiy ishlarida muhokama qilingan. V.Alimasov va B.Xodjayeva tarixiy shaxslarning ijtimoiy-ma‘naviy taraqqiyotdagi o‘rnini o‘rgangan<sup>5</sup>. A.Erkayev, Q.Nazarov, S.Choriyev izlanishlarida tarixiy xotirani tiklash, uni qadriyat darajasiga ko‘tarish yo‘llari, S.Otamurodov, A.Huseynova, M.Xajieva, A.Sharipov, M.Pardayeva tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarida tarixiy-madaniy meros bilan bog‘liq jihatlar tahlil qilinadi. R.Raxmanova va F.Fayziyev o‘quvchi-yoshlarda tarixiy bilimlarni shakllantirishning ba‘zi pedagogik-psixologik muammolariga e‘tibor qaratadi<sup>6</sup>.

---

<sup>3</sup> Qarang: Budrytė D. Memory Politics and the Study of Crises in International Relations: Insights from Ukraine and Lithuania. // Journal of International Relations and Development, 2021. – №4. – Pp. 830–849; DeLucia Ch. M. Memory Lands: King Philip’s War and the Place of Violence in the Northeast – New Haven: Yale University Press, 2018; Fridman O. Memory Activism and Digital Practices after Conflict: Unwanted Memories.// Memory Studies, 2022. – №1. – Pp. 23–38; Malinova O. Politics of Memory and Nationalism.// Nationalities Papers, 2021. – №6. – Pp. 1021–1038; McGlynn J. Memory Makers: The Politics of the Past in Putin’s Russia. – London: Bloomsbury Academic, 2023; Lim J.-H. Global Easts: Remembering–Imagining–Practicing. – New York: Columbia University Press, 2022; Richardson-Little N., Merrill S., Arlaud L. Far-Right Anniversary Politics and Social Media: The Alternative for Germany’s Contestation of the East German Past on Twitter.// Memory Studies, 2022. – №4. – Pp. 758–775;

<sup>4</sup> Qarang: Андреева И.В., Ахметзянов С.Х., Васильев Г.А. Проблемы сохранения исторической памяти в Магнитогорске. – Магнитогорск: Магнитогорский гос. технический ун-т, 2015. -211 с.; Васильев И.В., Кузнецов А.Н. Историческая память как фактор патриотического воспитания граждан.// Власть, 2021. – № 3. – С. 142–148; Грибан И.В. Историческая память как исследовательская проблема: анализ современных подходов.// Бюллетень науки и практики, 2016. – № 11. –С 45-52.; Миллер А. И., Ефременко Д. В. Политика памяти в современной России и в странах Восточной Европы. Акторы, институты, нарративы. – СПб.: Изд. Европейского университета в Санкт-Петербурге, 2020. -186 с.; Рубин В.А, Фомина Е.А. Историческая память в военных монументах: историографический обзор. – Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2016. -143 с.; Савруцкая Е.П., Устинкин С.В. Историческая память как фактор национальной безопасности. // Власть, 2019. – № 6. – С. 225–231.

<sup>5</sup> Жўраев Н.Қ. Тарих фалсафасининг назарий асослари. –Т.: Маънавият 2008. - 486 б.; Норкулов Д.Т., Қорабоева Д.Д. Тарихий маданият мерос ва миллий ўзликини англаш. –Т.: Фан, 2022 -145 б.; Тохирийев А. Миллий-маънавий мероснинг ёшлар тарихий онгини шакллантиришдаги аҳамияти. //Замонавий таълим. 2014, №3, -Б 24-27; Алимасов В., Хожаева Б. Ижтимоий-маънавий тараққиётда тарихий шахсларнинг роли. –Т.: Фан, 2016. -178 б.;

<sup>6</sup> Эркаев А. Маънавиятшунослик. 2-том. - Т.: Маънавият, 2018. -480 б.; Назаров Қ. Ўзбек фалсафаси тарихи Ж. 3. – Т.: Мухаррир, 2020. -504 б.; Чориев С.А. Ижтимоий фанларни ўқитиш – шахсни такомиллаштиришнинг муҳим воситаси.// Ижтимоий фанлар, 2021, №1. –Б 58-67.; Отамуродов С. Глобаллашув ва миллат. –Т.:“Янги аср авлоди”, 2008. -298 б.; Хусейнова А. Шарқ мутафаккирлари дунёкарашида умуминсоний қадриятлар. –Т.: Paradigma, 2018. -148 б.; Хажиева М. Ўзбекистонда толерантлик жараёни. – Тошкент: Abu matbuot-konsalt, 2008. - 180 б.; Шарипов А.З. Янги Ўзбекистонда маънавий-мафкуравий ислохотлар: ижтимоий-фалсафий таҳлил. Монография. – Б.: Дурдона, 2021. – 131 б.; Пардаева

Shubhasiz mazkur tadqiqotlarda muammo yechimiga oid qimmatli fikrlar mavjud. Shu bilan birga, ularda eski metodologiyaga tayanish saqlanib qolayotgani, tarixiy xotiraning etnometodologik jihatlarini va o'quvchi-yoshlarning etnodifferensial jihatlarini ochib berish, o'rganish e'tibordan chetda qoldiriladi. Ushbu bo'shliq muammoning mazkur aspektini alohida tadqiqot obyektiga aylantirishni taqozo qilayotir. Shu sababdan ushbu dissertatsiyada mazkur mavzu ustida tadqiqot olib borish, ilmiy asoslashga diqqat qaratilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Qarshi davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Barkamol inson shaxsining shakllanishida obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar dialektikasi" (2020-2025 yy) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o'quvchi yoshlarda tarixiy xotirani shakllantirishning etnometodologik jihatlarini asoslab berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tarixiy xotira fenomenining etnometodologik va ijtimoiy-falsafiy asoslari tahlil qilish va uning ong, tafakkur bilan bog'liq funksional xususiyatlarini aniqlash;

tarixiy xotiraning o'quvchi-yoshlar faoliyatida obyektivlashishiga bog'liq etnometodologik qonuniyatlarini ochib berish;

o'quvchi-yoshlar xususiyatlarini aniqlash asosida ularning professionallashtirishga qiziqishlarini tarixiy xotira fenomeni asosida rivojlantirish imkoniyatlarini tadqiq etish;

tarixiy shaxslar hayoti, ijodi va faoliyatidan foydalanishning barkamol avlod konsepsiyasi bilan bog'liq jihatlarini tahlil qilish;

Yangi O'zbekistonda barkamol avlodni shakllantirish konsepsiyasining tarixiy xotirani mustahkamlash tamoyillarini tadqiq etish;

o'quvchi-yoshlarda tarixiy xotirani shakllantirishning innovatsion yo'llari va usullarini takomillashtirishga oid taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida tarixiy xotirani shakllantirish bilan bog'liq jarayonlar tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** o'quvchi yoshlarda tarixiy xotirani shakllantirishning etnodifferensial xususiyatlari, psixologik va ijtimoiy-demografik xususiyatlar bilan bog'liqligi, etnometodologik yondashuv asosida tarixiy o'zlik va milliy tafakkurni mustahkamlash imkoniyatlarini asoslab berishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, dialektik, sinergetik va differensial yondashuv, sotsiologik kuzatuv, intervyu va so'rovnoma kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tarixiy xotira fenomenining shaxsiy idrok va tafakkur, umumiy tarixiy idrok va madaniy tafakkur, milliy o'zlikni anglash va tarixiy merosni qayta tiklash kabi ong

---

М.Д. Алишер Навоий асарларида Комил инсон ғояси. – Б.: Дурдона, 2016. -158 б. Рахмонова Р., Файзиев Ф. Ёшлар дунёқарашининг шаклланишида тарихий онг ва тарихий хотира. – Т.: Ўзбекистон, 2008. -180 б.

va tafakkur bilan bog‘liq funksional xususiyatlari hamda ularning ong va tafakkurni o‘tmish tajribasi bilan boyitish, jamiyat va shaxsning o‘zini identifikatsiya qilish, milliy g‘urur va ma‘naviy uyg‘unlikni ta‘minlash kabi konseptual ahamiyati ochib berilgan;

tarixiy xotiraning o‘quvchi-yoshlar faoliyatida obektivlashishining etnometodologik – madaniy-simvolik identifikatsiya (etnik va milliy ramzlar, qahramonlar, obrazlar) tarixiy an‘analarning avlodlar oralig‘ida uzviylik (xotiraning ijtimoiy faollikda davomiyligi), etnomadaniy muhit ta‘siri (hudud, oila, maktab, mahalla), ijtimoiy-mafkuraviy tarbiya (ta‘lim-tarbiya va mafkuraviy muhit) va prakseologik (ijtimoiy tadbirlar, etno-festivallar, ko‘rik-tanlovlar) qonuniyatlari aniqlashtirilgan;

o‘quvchi-yoshlarda tarixiy xotirani shakllantirish ijtimoiy demografik (yosh, hudud, ijtimoiy mavqe, oilaviy muhit), psixologik (shaxsiy idrok, emotsiyalar, ong va hissiy xususiyatlar), etnodifferensial (milliy urf-odat, madaniy qadriyatlar, milliy o‘zlik) va professionallashtirish (kasb-hunar tanlash, kelajakni rejalashtirish) kabi omillar bilan shartlanganligi asoslangan;

barkamol avlod konsepsiyasi bilan bog‘liq ravishda o‘quvchi-yoshlarda tarixiy shaxslar hayoti va ijodi misolida tarixiy xotirani shakllantirishning milliy-ma‘naviy (milliy o‘zlik, tarixiy adolat, g‘urur), innovatsion pedagogik-ijtimoiy muhit (interaktiv texnologiyalar, raqamli ta‘lim), taraqqiyotga aloqadorlik (ma‘rifat, yaratuvchanlik, ma‘naviy yuksalish) kabi tamoyillari hamda innovatsion (raqamli va multimediali ta‘lim resurslari, onlayn platformalar), pedagogik-ma‘rifiy (ta‘lim dasturlari, ilmiy tadbirlar), amaliy-ijtimoiy (yoshlar forumi, tarixiy-madaniy festivallar) usullari takomillashtirilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tarixiy xotira fenomenining yoshlar o‘rtasida milliy qadriyatlar va tarixiy voqealarni interaktiv shaklda targ‘ib qilish va ma‘naviy-ma‘rifiy savodxonlikni oshirish, ijtimoiy faoliyat va yaratuvchanlikka jalb qilish, ularda tarixiy o‘zlikni anglashga xizmat qiladigan innovatsion madaniy infratuzilma sifatidagi, yoshlar muhitida millatlararo totuvlik, milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy xotiraga daxldorlik va ma‘naviy-ma‘rifiy birdamlikni amaliy jihatdan ta‘minlash bilan bog‘liq funksiyalari tavsiflangan;

o‘quvchi-yoshlarda tarixiy xotirani shakllantirishning tarixiy xotira – ta‘lim-tarbiya jarayoni – tarixiy shaxslar uyg‘unligi tizimi asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlar bilan bog‘liq prinsiplari milliy o‘zlik, tarixiy adolat, ma‘naviy yetuklik va shaxsiy mas‘uliyat hissini uyg‘otishda namoyon bo‘lishi asoslab berilgan;

tarixiy xotirani mustahkamlashning ta‘limiy-innovatsion (multimedia vositalari, virtual ta‘lim texnologiyalari), ijtimoiy-madaniy (tarixiy-madaniy infratuzilmalar, virtual muzeylar, madaniy-tarixiy markazlar), ma‘naviy-ma‘rifiy (milliy ramzlar, qahramonlar obrazi, ma‘rifiy-ma‘naviy tadbirlar) yo‘llari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma‘lumotlar, sotsiologik so‘rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar,

respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati izlanish jarayonida chiqilgan xulosalar, ilmiy nazariy yondashuvlar tarixiy xotiraning subektiv voqeligi va uni obektivlashtirish zaruratini asoslashda, ma'rifiy jamiyatni shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishda, tarixiy xotirani obyektivlashtirish jarayonida etnometodologik qonuniyatlarni ilmiy jihatdan aniqlash va tasniflashda, milliy va xalqaro etnometodologiya sohasidagi yangi ilmiy konsepsiyalarning shakllanishida, Uchinchi Renessans g'oyasining yosh avlodda tarixiy ongini shakllantirish borasidagi ilmiy asoslarini, tarixiy xotira kategoriyasining yangi ijtimoiy-tarixiy sharoitda qayta talqin qilinishida metodologik asos sifatida hamda targ'ibot-tashviqot ishlari, ta'lim-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishda foydanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yoshlarda tarixiy tafakkur, tarixiy bilim, tarixiy-madaniy merosga munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy, ma'rifiy va axloqiy tadbirlarni uyushtirishda, targ'ibot markazlarida tarbiyaviy dasturlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uchun konseptual asos, ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirishda, shuningdek ta'lim tizimi o'quv dasturlariga tarixiy xotirani shakllantirish bo'yicha yangi metodikalar va etnodefferensial yondashuvlarni joriy qilish, yoshlar markazlari, klublar va turli ijtimoiy-ma'rifiy muassasalarning tarixiy-ma'naviy yo'nalishdagi faoliyatini yanada samarali va maqsadli tashkil etishda, muzeylar, madaniy markazlar va tarixiy obyektlarda yosh avlod uchun innovatsion, interaktiv ko'rgazmalar va tadbirlarni tashkil qilishda va "Falsafa", "Davlat va huquq nazariyasi va tarixi", "Ijtimoiy falsafa", "Ma'naviyatshunoslik" kabi fanlarni o'qitishda, talabalar bilan uyushtiriladigan davra suhbatlarida, "Besh muhim tashabbus" tadbirlarini, yoshlar faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadli dasturlar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'quvchi yoshlarda tarixiy xotirani shakllantirishning etnodifferensial xususiyatlarini tadqiq etish asosida:

tarixiy xotira fenomenining shaxsiy idrok va tafakkur, umumiy tarixiy idrok va madaniy tafakkur, milliy o'zlikni anglash va tarixiy merosni qayta tiklash kabi ong va tafakkur bilan bog'liq funksional xususiyatlari hamda ularning ong va tafakkurni o'tmish tajribasi bilan boyitish, jamiyat va shaxsning o'zini identifikatsiya qilish, milliy g'urur va ma'naviy uyg'unlikni ta'minlash kabi konseptual ahamiyatiga doir nazariy mulohazalardan Qarshi davlat universitetida bajarilgan A-1-173 raqamli "Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish" amaliy tadqiqot loyihasini amalga oshirishda, seminar-treninglar o'tkazishda foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2024-yil 26-dekabrda 04/3848-son ma'lumotnomasi). Natijada, mavzuning tarixiy xotira bilan bog'liq jihatlariga bag'ishlangan ilmiy ishlarni tayyorlashga xizmat qilgan;

tarixiy xotiraning o'quvchi-yoshlar faoliyatida obektivlashishining etnometodologik – madaniy-simvolik identifikatsiya (etnik va milliy ramzlar, qahramonlar, obrazlar) tarixiy an'analarning avlodlar oralig'ida uzviylik (xotiraning ijtimoiy faollikda davomiyligi), etnomadaniy muhit ta'siri (hudud, oila, maktab, mahalla), ijtimoiy-mafkuraviy tarbiya (ta'lim-tarbiya va mafkuraviy muhit) va prakseologik (ijtimoiy tadbirlar, etno-festivallar, ko'rik-tanlovlar) qonuniyatlariga oid yangilik va xulosalardan O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining 2022-2023-va 2024-yillardagi ma'naviy targ'ibot oyliklarini o'tkazishda va umumiy o'rta tadim maktablarining 9-va 11-sinf o'quvchilari uchun tarix fanini o'qitishda dars soatlarini ikki barobar ko'paytirishga oid takliflarni tayyorlash hamda mazkur fan bo'yicha olimpiada ishtirokchilarini munosib taqdirlash ishlarida foydalanilgan (O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi Siyosiy kengashining 2025-yil 21-fevraldagi 01-02/32-son ma'lumotnomasi). Natijada, partiyaning ish rejasiga kiritilgan tadbirlarni amalga oshirishda o'ziga xos uslubiy manba vazifasini hamda dolzarb masalalarni samarali hal etishga xizmat qilgan;

o'quvchi-yoshlarda tarixiy xotirani shakllantirish ijtimoiy demografik (yosh, hudud, ijtimoiy mavqe, oilaviy muhit), psixologik (shaxsiy idrok, emotsiyalar, ong va hissiy xususiyatlar), etnodifferensial (milliy urf-odat, madaniy qadriyatlar, milliy o'zlik) va professionallashish (kasb-hunar tanlash, kelajakni rejalashtirish) kabi omillar bilan shartlanganligiga doir nazariy umumlashma va yangiliklardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining VII yo'nalishida belgilangan "Uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy komillikka erishish va ma'rifatli yoshlarni tarbiyalashga doir chora-tadbirlar" 52-bandi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasida belgilangan maqsad va vazifalar asosida "Yangi kuch" ma'naviy-tarbiyaviy harakatlar dasturini ishlab chiqish" mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 7-martdagi 10/113-son ma'lumotnomasi). Natijada, tarixiy xotira fenomenining ijtimoiy-falsafiy tahlilining o'ziga xosligini ochib berishga, o'quvchi yoshlarda tarixiy xotirani shakllantirish ularning ijtimoiy demografik, psixologik, etnodifferensial va professionallashish xususiyatlarini aniqlashga xizmat qilgan;

barkamol avlod konsepsiyasi bilan bog'liq ravishda o'quvchi-yoshlarda tarixiy shaxslar hayoti va ijodi misolida tarixiy xotirani shakllantirishning milliy-ma'naviy (milliy o'zlik, tarixiy adolat, g'urur), innovatsion pedagogik-ijtimoiy muhit (interaktiv texnologiyalar, raqamli ta'lim), taraqqiyotga aloqadorlik (ma'rifat, yaratuvchanlik, ma'naviy yuksalish) kabi tamoyillari hamda innovatsion (raqamli va multimediali ta'lim resurslari, onlayn platformalar), pedagogik-ma'rifiy (ta'lim dasturlari, ilmiy tadbirlar), amaliy-ijtimoiy (yoshlar forumi, tarixiy-madaniy festivallar) usullariga oid umumlashma va takliflardan Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil efirga uzatilgan "Oltin voha", "Xayrli tong" teleradioeshittirishlarini ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2025-yil 14-martdagi 17-05/49-son ma'lumotnomasi). Natijada, tarixiy xotirani kuchaytirish takliflari ilmiy-ma'rifiy

kontentning boyitilishiga, yoshlar ongini mustahkamlashga, tarixga oid bilimlarni ommalashtirish va uni zamonaviy kontekstda tushunishga, fikrlash va tahlil qilish madaniyatini shakllantirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqotning asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta (5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) maqola chop qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 144 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Tarixiy xotirani o'rganishning etnometodologik va ijtimoiy-falsafiy masalalari**" deb nomlanib, unda ijtimoiy-tarixiy voqelik va unga munosabat ko'rinishi hisoblanadigan tarixiy xotira nafaqat alohida fenomen, shu bilan birga, uning etnometodologik xususiyatlari, immanent belgilari ham tadqiq etilgan.

Bilish jarayoni retrofalsafiy va etnometodologik jihatlariga ega bo'lmasligi, ongning psixologik imkoniyatlari bilan chegaralanishi mumkin. Tarixiy xotira esa ushbu ongni nafaqat o'z ichiga oladi, balki uni yangi, hali ochilmagan, ma'lum bo'lmagan faktlar, misollar va voqeliklar bilan boyitadi.

Dissertatsiyada etnometodologik konsepsiyalar mifologik, teologik, ekzistensial, gnoseologik, aksiologik, istoritsizm, marksistik, sinfiy, etnologik, ratsional, optimistik yo'nalishlarga klassifikatsiyalanib, ularning har biri tadqiqot maqsadi nuqtayi-nazaridan ochib berilgan va quyidagicha izohlangan:

1. Tarixiy xotirada subyektivlik va obyektivlik uyg'un, bir-birini to'ldirib kelishi muhimdir. Insonga, jamiyatga faktlarni subyektivlashtirish qanchalik xos xislat bo'lmasin, ular obyektiv borliqni, sodir bo'lgan voqea va hodisalarni anglashga qaratilgandir. Subyektiv xususiyatga ega eslash, yodda saqlash, u yoki bu faktni tanlash inson xotirasiga xosdir. Biroq ushbu subyektivlik o'zidan-o'zi sodir bo'lmaydi, u real hayotda, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda ro'y bergan obyektiv hodisalarning ongdagi, tasavvurdagi in'ikosi sifatida xotiraga o'tadi.

2. Tarixiy xotiraning turli shakllari mavjud bo'lib, ularga xalq og'zaki ijodi, miflar, rangtasvir yoki chizmalar, suratlar, kitoblar, hujjatlar, kinoxronikalar, dastxatlar va yozishmalar, urf-odatlar va an'analar, e'tiqodlar, yaratilgan artefakt (sun'iy olam)lar kiradi. Faqat inson faktlarni gapirtira oladi, ulardan o'z hayoti va gnoseologik maqsadlariga muvofiq keladigan konsepsiyalar, nazariyalar, modellarni yarata oladi.

3. Ijtimoiy-tarixiy voqealarning nisbiyligidan kelib chiqib aytish mumkinki, tarixiy xotira:

birinchidan, davr talablari, ideologik, siyosiy maqsadlarning konseptual ko'rsatmalariga mos kelishi;

ikkinchidan, ijtimoiy tadqiqotlar talablariga, gnoseologik ehtiyojlarni qondirishga, har bir mavzuni obyektiv yoritish va o'rganishga oid professional yo'l-yo'riqlarga muvofiq, bo'lishi;

uchinchidan, jamiyatda qaror topgan ma'naviy-axloqiy imperiativlarga, gumanistik e'tiqodlarga qarshi chiqmasligi, shu asosda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini, taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qilishi kerak.

Tadqiqotda tarixiy xotiraning mafkura, ideologiya bilan bog'liq masalalari tahlil etilib, bu borada K.Mangaym, Y.Xabermas, G.Bart, G.Myurdal, B.Meya, M.A.Berg, Ye.M.Jukov, Ye.B.Chernyak, V.I.Pavlov, M.A.Zaborov, A.I.Rakitov, Y.B.Petrov, o'zbekistonlik N.Jo'rayev, S.Shermuhammedov, T.Mahmudov, M.Quronov, Sh.To'rayev, T.Tashmetov kabi tadqiqotchilarning asarlari asos qilib olingan.

Milliy ong va ma'naviy tarbiya, tarixiy xotirani shakllantirish o'rtasidagi dialektik bog'liqlik mavjud. Ushbu bog'liqlik mexanistik tarzda bir birini taqozo etmaydi, balki yosh avloni ongli, ma'naiyatli va vatanparvar qilib tarbiyalash zaruratidan kelib chiqadi.

Dissertant fikricha, milliy mafkura bilan tarixiy meros, tarixiy xotiraning dialektik bog'liqligi aksiomadir. Biroq ushbu aksiomaning ichki belgilari, yo'nalishlari har doim ham anglab yetilavermaydi, goho esa ularga umuman e'tibor berilmaydi. Shuning uchun ham mavjud adabiyotlarda milliy mafkura bilan tarixiy meros, tarixiy xotira o'rtasidagi bog'liqlik shunchaki qayd etiladi xolos. Bu esa mafkuraviy ishlarda tarixiy meros va tarixiy xotiradan unumli foydalanishga xalaqit beradi. Milliy mafkura bilan tarixiy xotira o'rtasidagi dialektik bog'liqlik quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. Milliy mafkura tarixiy merosning tadrijiy davomi va u tarixiy xotiraga asoslanadi. Milliy mafkura xalqning, millatning ijtimoiy-tarixiy hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. Xalq, millat o'z mafkurasini turli ijtimoiy-g'oyaviy ko'rinishlarda ifoda etadi. Bu o'rinda tarixiy ong alohida bir voqelik, fenomen sifatida keladi.

2. Milliy istiqloqlarning mohiyati va mustaqillik g'oyalarini anglashda tarixiy shaxslar, buyuk allomalar va sarkardalar, ajdodlarimizning hayoti, ijodi va dadil xatti-harakatlari tarixiy haqiqatni anglashda, tarixiy xotiraning shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

3. Milliy g'oya va mafkurani ayrim shaxslar, guruhlar yaratsa-da, ular tarixiy xotira singari ijtimoiylashishni taqozo etadi.

Milliy g'oya va mafkurani xalqning, millatning ijtimoiy-tarixiy rivojlanish qonunlaridan yaxshi xabardor, o'z so'zi va fikri bilan kishilar ongiga, qalbiga ta'sir o'tkaza oladigan, el, yurt, Vatan oldidagi burchini to'liq anglaydigan kishilar ishlab chiqadi. Bunday kishilar ziyolilardir. Shunga qaramasdan, kishilarning ongiga majburan singdirilgan soxta ta'limotlarning salbiy ta'siri uzoq saqlanib qoladi.

4. Milliy ong va mafkura bilan tarixiy xotira o'rtasidagi dialektik bog'liqlik ijtimoiy idealni ifoda etib keladi, shu tariqa kishilarning hayotiy maqsadini shakllantiradi.

5. Miliy ong va tarixiy xotira pozitiv voqeliklar sifatida kishilarni o'z atrofida birlashtiradi va ular ongini, xatti-harakatlarini, turmush tarzini boshqaradi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, tarixiy xotira inson va jamiyat hayotining ajralmas qismi, ijtimoiy mavjudlikning substansional mohiyatidir. Tarixni soxtalashtirish, falsifikatsiyalash mudom bo'lgan, ayrim bir guruhlar, sinflar tarixni o'zining tor maqsadlariga xizmat qildirishga intilib keladilar. Aynan shuning uchun insonga o'tmishni to'g'ri baholashga, tarixiy haqiqatni tor, sinfiy maqsadlarga xizmat qilishga intilayotgan subyektlarga ergashib ketmasligi, o'zining mustaqil qarashiga ega bo'lishi uchun tarixiy tafakkur va tarixiy xotira kerak. Tarixiy xotira nafaqat tarixiy ongning markaziy qismi, shuningdek, xalq san'ati, ijodiyoti, marosim va urf-odatlarini kabi obyektivlashgan artefaktlarda ham namoyon bo'ladi.

Tarixiy xotira jamiyatning o'z tarixiy tajribasidan o'rganish, qadriyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarixiy xotira orqali avlodlar orasida ma'naviy bog'lanish va o'zaro tushunish yaratiladi, bu esa milliy birdamlik va ijtimoiy barqarorlikka hissa qo'shadi. Shu bilan birga, tarixiy xotira insonning zamonaviy ijtimoiy muhitda o'z o'rnini aniqlashga yordam beradigan ma'naviy-me'yoriy asos bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O'quvchi-yoshlarda tarixiy xotirani shakllanish omillari va rivojlantirish mexanizmlari”** deb nomlangan va o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy-demografik, psixologik xususiyatlari va professionallashtirish muammolari hamda tarixiy xotirani shakllantirishda tarixiy shaxslar hayoti, ijodi va faoliyatining o'rnini ochib berilgan.

Jamiyat bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tayotganida, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaga, yoshlarda davr va taraqqiyot talablariga mos keladigan fazilatlarni, dunyoqarashni va kasb-hunarni shakllantirishga ehtiyoj sezadi. Shu tariqa o'quvchi-yoshlarning, institutsional nuqtayi nazardan olib qaraganda, uch guruhga: 1) maktab o'quvchi-yoshlari; 2) litsey o'quvchi-yoshlari va 3) kollej va texnikum o'quvchi-yoshlariga ajratish mumkin. Bularni, ma'lum bir ma'noda, sotsial differentsiatsiya sifatida anglash mumkin, chunki mazkur guruhlar o'rtasida, sotsial bo'lmas-da, fiziologik, psixologik va intellektual (professionalizatsiyalashish) farqlar mavjud.

Dissertant fikricha, o'quvchi-yoshlar aholining alohida ijtimoiy-demografik qatlami hisoblanadi. Ular bir tomondan, oilasiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy hayotga, munosabatlarga tayyorlovchi maktab, litsey, kollej va texnikum(bundan keyin MLKT) muhitiga bog'langandir. Oila, ko'cha va maktab muhiti o'quvchi-yoshlarga ta'sir etuvchi institutlar hisoblanadi. Ular ichida maktab bilimlar berish va ijtimoiy-axloqiy normalarni shakllantirishda yetakchi o'rinda turadi. Tarixiy xotira ushbu psixofiziologik o'zgarishlardan tashqarida

shakllanmaydi, u har bir o'quvchi yoshning real qiziqishlarini, tarixiy bilimlar uyg'otuvchi his tuyg'ularni boshqarishni, qaysi bosqichda va qaysi predmetlarda muammoga qiziqish uyg'otish mumkinligini bilishni taqozo etadi.

Dissertant professionalizatsiya qanchalik muhim o'rin tutmasin, o'quvchi-yoshlarda ijtimoiy-gumanitar dunyoqarash va bilimlarni shakllantirish, ularni vatanparvar, o'z el-u yurtini sevadigan, yuksak ma'naviyatli shaxslar qilib tarbiyalash pirovard maqsad, tarixiy bilim va tarixiy xotirani shakllantirish esa ushbu pirovard maqsadning ajralmas qismidir, degan xulosaga kelgan.

Tadqiqotda o'zbek xalqi etnodifferensial xususiyatlarni belgilab beruvchi va tarixiy xotirani shakllantiruvchi bosh subyekt ekani asoslangan. Xalqning etnodifferensial ta'siri uning tarixiy jarayonlarning asosiy omili ekani bilan belgilanadi. O'quvchi-yoshlar o'zining differensial xususiyatlari nuqtayi nazar idan alohida ijtimoiy guruh, bo'lsa-da, ular, eng avvalo, ma'lum bir ijtimoiy-tarixiy birlik – xalq, millat, etnos vakilidir. Insoniyatning genezisini, rivojlanish bosqichlarini, ular o'rtasidagi evolyutsion bog'liqliklarni anglashga qaratilgan gnoseologik qiziqishlarni umuminsoniy (umumjahon) tarixiy ong deyish mumkin. Jahon sivilizatsiyalari haqida tarixiy bilimlarni shakllantirishga qaratilgan Gegel, I.Gerder, O.Shpengler, A.Toynbi, V.Danilevskiy, S.Alekseyev, K.Kantorning tarixiy-falsafiy asarlari<sup>7</sup>asida ana shunday umuminsoniy (umumjahon) tarixiy ongni shakllantirishni nazarda tutadi. Ushbu tarixiy ong, Gegel nazarda tutgan “umumjahon ruhi”, “insoniyat ruhi” kabi atamalarga yaqin bo'lib, dunyoda, yer yuzida kechayotgan ijtimoiy-tarixiy jarayonlarni umum, butun, yaxlit nuqtayi nazaridan anglashga intilishdir.

Etnometodologik mohiyatiga ko'ra, milliy tarixiy ong va xotira:

1) xalq, millat tarixini milliy taraqqiyot va milliy mafkura nuqtayi nazaridan obyektiv o'rganishni taqozo etadi;

2) tarixiy haqiqat bahslar, munozaralar va turli yondashuvlar orqali aniqlanadi;

3) tarixiy ong va xotira-dialektik hodisa, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, strategik maqsadlar ularning yo'nalishiga ta'sir etmay qolmaydi;

4) ijtimoiy-tarixiy bosqichlardagi pozitiv ahamiyatga ega, milliy taraqqiyotni qo'llab-quvvatlovchi va ularga xizmat qiluvchi qadriyatlar, voqeliklar, tajribalardan unumli foydalanishni talab qiladi;

5) xalqlarning, millatlarning integratsiyalashuvi tajribalari va qonuniyatlaridan kelib chiqish, ushbu negizda insoniyatni ma'lum bir ijtimoiy ideal atrofida birlashtirish maqsadiga xizmat qilishni nazarda tutadi.

Dissertatsiyada tarixiy shaxslar tarixiy xotirani shakllantiruvchi va etnodifferensial xususiyatlarni ifoda etuvchi subyektlar ekani uqtiriladi. Tarix uni yaratgan yirik shaxslari bilan yodda saqlanadi. Tarixiy ong va xotiraning shakllanishida milliy qahramonlar, u yoki bu davrda jamiyatni, kishilarni o'z ketidan ergashtirgan buyuk shaxslar muhim o'rin tutadi. Aynan shuning uchun ham davr yangi qahramonlarga, ideallarga muhtoj bo'lganida tarixiy shaxslar hayoti, ijodi va faoliyatiga murojaat etadi, ularning obrazlaridan qahramonlar, namunalar yasab,

---

<sup>7</sup> Арутюнов С.А. Народы и культуры. Развитие и взаимодействие. – М.: Наука, 1989; Коллингвуд Р.Дж. Идея истории. Автобиография. – М.: Прогресс, 1980; Алексеев В.П. Этногенез. – М.: Наука, 1986; Имя и этнос. Сборник. – М.: Родос, 1996; Жабборов Исо. Ўзбек этнографияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996; Ашуруров А. Этнология. – Тошкент: Фан, 2007 ва б.

yosh avlodga taqdim etadi. Ijtimoiy determinizm qancha kuchli ta'sir etmasin, shaxs o'z iqtidorini namoyon qilishi, hatto bu borada jamiyat, muhit, tuzum bilan jang qilishi mumkin. Ma'rifatparvar jadidlar sho'rolarning taziqi va do'q-po'pisalariga qaramay, o'z g'oyalaridan voz kechmadilar, o'zbek xalqini ozod, erkin yashashi va o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi uchun kurashdilar. Ular ma'rifat yo'li orqali milliy ozodlikka va taraqqiyotga erishish g'oyalariga tayandilar. Bu borada qahramonona kurashgan Maxmud Xo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon bo'ldi.

Dissertantning fikricha buyuk shaxslardagi kelgusi avlodlar va ularda tarixiy xotirani shakllantiruvchi ibratli fazilatlar quyidagilarda namoyon bo'ladi.

1. Ijtimoiy-tarixiy hayotga ta'sir etib, o'zining iqtidorini, sifatlarini to'la namoyon etgan buyuk shaxslarda ijtimoiy-tarixiy borliqni o'zgartirish zarurligini sezish tuyg'usi kuchli rivojlangan bo'ladi. Bunday shaxslar haqiqiy qahramon, yetakchi sifatida ijtimoiy borliqda ko'p zamondoshlari ilg'amagan, tan olishni istamagan tartiblarni, qoidalarni, qarashlarni olib kiradi.

2. Buyuk shaxslar kishilarni birlashtirib, ularni o'z ketidan ergashtirish qobiliyatiga ega psixolog, rahbar va tashkilotchidir. Aynan ushbu fazilatlar bilan ular qolgan kishilardan ajralib turadilar. Ularda vaziyatni, kishilar kayfiyatini va maqsadlarini to'g'ri anglash, payqash tuyg'usi kuchli rivojlangan bo'ladi. Fidoyilik, eksentrizm, o'z manfaatlarini ijtimoiy manfaatlarga xizmat qildirish, tashkilotchilikni, boshqarishni o'z ustiga olish yuqoridagi shaxslarga xos xislatdir.

3. Buyuk shaxslar nafaqat ayrim olgan sohani, shuningdek, insonning ma'naviy-ruhiy olamini, transsendental tasavvurini, e'tiqodini o'zgartirish borasida ham isloxotchilar bo'lib maydonga chiqadilar. Bu borada Konfutsiy, Buddha, Iso va Muhammad payg'ambarlarning hayoti va faoliyatini misol qilib keltirish mumkin.

4. Tarixiy faktlar, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari va ziddiyatlari ana shunday buyuk shaxslar hayotida umumlashgan tarzda mujassam keladi. Aynan shuning uchun ham tarixiy merosga murojaat etganda, o'tmishdan tarixiy haqiqat izlanganda buyuk ijodkorlar, sarkardalar, hukmdorlar, mutafakkirlar hayoti, ijodi va faoliyati o'rganiladi. Chunki o'z davrning eng ibratli tomoni, go'zal, olijanob g'oyalari, hatto ziddiyatlari ularning hayoti va harakatlarida yorqin aks etadi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, o'quvchi-yoshlar, ijtimoiy-demografik xususiyatlariga ko'ra, oilaviy va maktab muhitiga bog'langan, hayotiy maqsadlari hali to'liq shakllanmagan, bilim olish jarayonida bo'lgan shaxslardir. O'quvchi-yoshlarda tarixiy xotirani shakllantirish jarayoni ularning ishtirokidagi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatning ajralmas komponenti hisoblanadi. Shu boisdan, ta'lim-tarbiya tizimi bilan tarixiy xotirani shakllantirish o'zaro dialektik integratsiyada, ya'ni bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro bog'liq holda kechadi. Tarixiy xotira esa mazkur jarayonning tarkibiy elementi sifatida milliy ong va mafkuraviy manbalardan epistemologik asosda oziqlanadi.

Hozirgi zamon, taraqqiyot talablari yoshlardan bir tomondan, malakali mutaxassis bo'lishni, zamonaviy bilimlarni, texnologiyani egallashni, ikkinchi tomondan esa, gumanizm prinsiplariga muvofiq, insonparvar, millatparvar bo'lishni, yuksak ma'naviy ideallar bilan yashashni talab etmoqda. Ilg'or

davlatlarining tajribalari ko'rsatmoqdaki, shaxsni yuksak malakali, intellekti boy mutaxassis qilib yetishtirish mumkin, ammo unda yuksak ma'naviy fazilatlarini, gumanizmni shakllantirish qiyin. Demak, insonning ma'naviy fazilatlarini shakllantirishning eng ta'sirchan vositalaridan biri tarixiy xotiradir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Yangi O‘zbekiston yoshlarida tarixiy xotirani shakllantirish: zamonaviy muammolar va innovatsion yechimlar”** deb atalgan va Yangi O‘zbekistonda barkamol avlodni tarbiyalash va yoshlar ongida tarixiy xotirani shakllantirishning dolzarblashuvi tahlil etilgan. Uchinchi Renessans va o‘quvchi-yoshlarda tarixiy xotirani shakllantirishda ta’lim jarayonidagi metodologik yondoshuvlar ochib berilgan.

Tarixiy xotira va mafkura, g‘oya subyektiv voqelik bo‘lsa, tarbiya, barkamol avlodni tarbiyalash mezonlari, usullari va mexanizmlari esa ularni obyektivlashtirishga qaratilgan vositalardir. Ularning uyg‘unligi, yaxlitligi barkamol avlodni tarbiyalash konsepsiyasida o‘z aksini topadi.

Mamlakatimizda yangi turdagi va yangi sifat bosqichidagi ta’lim maskanlari, xususan, Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyat yuritmoqda. Ta’lim sohasidagi islohotlardan ko‘zlangan maqsadni Prezidentimiz vatanparvar yoshlarni tarbiyalash bilan bog‘laydi: “Ta’lim sohasidagi muhim vazifa faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan, Vatan va xalq manfaatlarini qat’iy himoya qila oladigan, zamonaviy, keng fikrlaydigan yoshlar avlodini shakllantirishdan iborat. Shu sababli Uzlüksiz ta’lim tizimida ijtimoiy fanlarni o‘qitish tartibi va tamoyillari konsepsiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish obyektiv zaruratga aylanmoqda, deb o‘ylayman”<sup>8</sup>.

Dissertatsiyada o‘quvchi yoshlarda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishga xizmat qiluvchi o‘zbek xalqi tarixi, uning etnodifferensial xususiyatlari ta’siridagina ro‘y berishi ta’kidlanadi. Uchinchi Renesans o‘zbek xalqi taraqqiyotini ifoda etayotgan fenomen bo‘lgani uchun u etnodifferensial ahamiyatga ega voqelik sifatida yoshlar ongi, dunyoqarashi va tarixiy xotirasiga ta’sir qiladi.

Dissertantning fikricha, mavzularga xronologik yondashuvni tarixiy shaxslar hayoti va ijodi, faoliyati bilan bog‘liq, lavhalar bilan to‘ldirib borishga intilish zarur. Umumiy tarixiy jarayonlar, ular tafsiloti qancha muhim bo‘lmasin, ularni avtobiografiya, jonli shaxslar hayotiga oid lavhalar bilan to‘ldirib, boyitib borish darslarni qiziqarli, ibratli qiladi va yoshlarga ijtimoiy-tarixiy jarayonlarni obyektiv obrazlar, tasvirlar tarzida yodda saqlab qolishga, retrospektiv yondashuvni jonli, qiziqarli, illyustrativ-avtobiografik manbalar bilan boyitish esa tarixiy haqiqatni tez anglashga, eng muhim lavhalarni uzoq esda saqlab qolishga, ya’ni tarixiy xotiraning shakllanishiga yordam beradi.

